

Ilmiy aloqalar rivojlanmoqda

2018-yil 5-noyabr kuni Yaponyaning Fanni rivojlantirish jamiyati (JSPS) va Fizika-kimyoviy tadqiqotlar instituti vakillari O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutiga tashrif buyurdi. Mehmonlar Institut jamoasi bilan uchrashdilar va ilmiy laboratoriylar faoliyati bilan tanishdilar.

Ushbu tashrifning asosiy maqsadi ilmiy aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, birgalikdagi tadqiqotlar sohasida hamkorlik masalalarini muhokama qilish uchun Institut olimlarini Yaponyaning Fanni rivojlantirish jamiyati (JSPS) va Fizika-kimyoviy tadqiqotlar instituti (RIKEN)ning ilmiy dasturlari, loyihalari bilan tanishtirishdan iborat.